

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: RASULEVA NIGINA ALISHEROVNA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: LIU LIKUN

Normal University named after Nazhami

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260080
Xulosa raqami	997
Xulosa sanasi	30.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Guvohnoma: MAS № 0000293, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60110900
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000293, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60110900 – Foreign Language and Literature: Chinese
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60110900 – Иностранный язык и литература (китайский язык)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Xitoy tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoiq / muvofoiq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoiq / qisman muvofoiq / muvofoiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim yo'nalishini tashkil etish bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi va sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani, ta'lim dasturini joriy etish uchun zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgani hamda rivojlantirish strategiyasi va ichki sifat nazorati elementlari joriy etilgani aniqlandi. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi ta'lim dasturlarini muntazam monitoring qilish va yangilash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek ish beruvchilar va soha mutaxassislari bilan hamkorlik jarayonlarini tizimli ravishda hujjatlashtirish maqsadga muvofiq ekanini qayd etdi. Xitoy tili yo'nalishida xorijiy oliy ta'lim muassasalari va boshqa hamkor tashkilotlar bilan samarali aloqalarni boshqarish mexanizmlarining mavjudligi ta'lim dasturining xalqaro hamkorlik salohiyatini oshirish hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi, o'quv reja va fan dasturlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqilgani, ta'lim dasturining maqsad va vazifalari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar tizimli ravishda belgilanganligi aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standarti hamda Milliy malakalar ramkasining 6-darajasi talablariga muvofiq shakllantirilgan. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi fan dasturlarini

ekspertizadan o'tkazish jarayonida ayrim fanlar bo'yicha ta'lim natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqroq ifodalash, shuningdek tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini zamonaviy manbalar hisobiga muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq ekanini qayd etdi. Xitoy tili va adabiyoti yo'nalishida til kompetensiyalarini pedagogik tayyorgarlik, madaniyatlararo muloqot hamda zamonaviy o'qitish metodikalari bilan uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash bo'yicha zarur me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilgani, o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish hamda talabalar bilimini nazorat qilishning asosiy tartiblari belgilanganligi aniqlandi. O'quv jarayonini tashkil etish mexanizmlari ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalarini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi fanlar kesimida ta'lim natijalari va baholash mezonlari o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqroq ifodalash baholash tizimining shaffofligi va natijadorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etdi. Xitoy tili va adabiyoti yo'nalishida kommunikativ o'qitish metodlari, og'zaki va yozma nutq amaliyoti hamda til muhitiga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning yetarli ulushda tashkil etilishi talabalarning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida talabalar faoliyatini tashkil etish, ularning ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish hamda talabalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini ta'minlash bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Qabul mezonlari va qabul parametrlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida belgilangan bo'lib, talabalarni akademik faoliyatga jalb etish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar amalga

oshirilmoqda. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi talabalarning akademik mobillik dasturlarida, ilmiy-tadqiqot faoliyatida hamda xalqaro almashinuv loyihalarida ishtirokini yanada kengaytirish ta'lim dasturining sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilishini qayd etdi. Talabalar faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgani, ularning o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyat olib borishi uchun zarur tashkiliy hamda moddiy shart-sharoitlar yaratilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi mutaxassislik fanlarini olib boruvchi xitoyshunos professor-o'qituvchilar tarkibini yanada mustahkamlash, ilmiy darajaga ega xitoyshunos mutaxassislarni izchil jalb etish ta'lim dasturining akademik salohiyatini oshirishga xizmat qilishini qayd etdi. Xitoy tili va adabiyoti yo'nalishida professor-o'qituvchilarning yuqori til kompetensiyasiga ega bo'lishi hamda ona tili sohiblari va xorijiy hamkor mutaxassislar bilan muntazam hamkorlik qilishi talabalarning lingvistik va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv auditoriyalari, axborot-resurs markazi, kompyuter texnikalari, multimedia vositalari hamda ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma shakllantirilgani aniqlandi. Universitetda zamonaviy o'quv auditoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan xonalar, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari hamda talabalar va professor-o'qituvchilar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga, ekspert komissiyasi xitoy tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha lingafon xonalari, ieroglif yozuvini o'rgatishga mo'ljallangan

didaktik vositalar hamda xitoy tilidagi o'quv va ilmiy adabiyotlar fondini yanada boyitish ta'lim sifatini oshirish va talabalarning amaliy til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etdi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ta'lim dasturlarini muntazam monitoring qilish va yangilash mexanizmlarini kuchaytirish hamda manfaatdor tomonlar bilan aloqani izchil hujjatlashtirish zarur.
- ✓ Ayrim fan dasturlarida ta'lim natijalari va kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada aks ettirilmagan; tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxatini yangilash talab etiladi.
- ✓ Mutaxassislik fanlarini olib boruvchi xitoyshunos kadrlar tarkibini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ta'lim dasturini monitoring qilish va yangilash mexanizmlarini kuchaytirish, manfaatdor tomonlar bilan aloqani hujjatlashtirish.
- ✓ Fan dasturlarida ta'lim natijalari va baholash mezonlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ifodalash hamda adabiyotlar ro'yxatini yangilash.
- ✓ Ilmiy darajaga ega xitoyshunos mutaxassislarni izchil jalb etish.
- ✓ Lingafon xonalari va xitoy tilidagi adabiyotlar fondini boyitish, xorijiy hamkorlikni kengaytirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini joriy etish uchun zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgani,

rivojlantirish strategiyasi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, vazifalari, kutilayotgan o'quv natijalari va kasbiy kompetensiyalari Davlat ta'lim standarti hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv jarayonini tashkil etish va baholashning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, talabalarni akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amalda qo'llanilmoqda. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgan hamda ularning o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyat olib borishi uchun tegishli sharoitlar yaratilgan. Universitetda zamonaviy o'quv auditoriyalari, axborot-resurs markazi, elektron ta'lim resurslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik infratuzilma shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) va barcha indikatorlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar, jumladan ta'lim dasturlarini monitoring qilish va yangilash mexanizmlarini takomillashtirish, fan dasturlarida ta'lim natijalari va kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqlashtirish, xitoyshunos professor-o'qituvchilar tarkibini mustahkamlash hamda lingafon xonalari va xitoy tilidagi adabiyotlar fondini boyitish bo'yicha tavsiyalar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (xitoy tili) bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

